

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 2752,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilda 53,1 ming kishiga yoki 1,0 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1777,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 975,3 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr


- Aholi soni **53,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **66,5 ming nafami** tashkil etdi.
- **12,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **26,4 mingta nikoh** va **2,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)




Demografik holat

Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2019 yil 1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 369,8 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4181,3 kishi), Namangan (859,4 kishi), To'raqo'rg'on (808,9 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (73,9 kishi) va Mingbuloq tumanida (166,2 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2019 yil 1 yanvar holatiga)



Demografik holat

**Namangan viloyati
tarixida ilk bor
2018 yilda eng ko'p
tug'ilish, ya'ni
66,5 ming chaqaloq qayd
etildi**

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqari-shi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 66,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,4 promilleni tashkil etdi hamda 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega oshganligi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 22,9 promille bo'lgan) kuzatildi.


**O'g'il bolalar:
34,9 ming nafar**



**Qiz bolalar:
31,6
ming nafar**



**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-dekabr)**



Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 12,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,9 promille bo'lgan).


Erkaklar:
6,6
ming kishi



Ayollar:
5,6
ming kishi




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-dekabr)



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,8 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 %i - o'simtalardan, 6,7 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,1 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,6 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 799 nafarni tashkil etib, ularning 41,8 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 30,4 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,4 %i - tug'ma anomaliyalardan, 3,1 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 3,5 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 26,4 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 9,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (9,2 %), To'raqo'rg'on (5,9 %), tumanlari, Namangan shahri (1,3 %) to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chortoq (30,0 %), Pop (26,9 %), Norin (10,8%), Kosonsoy (2,5%) va Uychi (2,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2018 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	4,2	4,6
Ko'chib ketganlar	5,7	5,7
Migratsiya saldosi	-1,2	-1,1

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Namangan shahrida (minus 2,2 ming kishi), To'raqo'rg'on tumanida (minus 0,8 ming kishi) va Norin (minus 0,6 ming kishi) qayd etildi.

Migratsiya saldosinging ijobiy darajasi Namangan tumanida (plus 2,1 ming kishi) kuzatildi.



Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 612,2 ming kishini tashkil etib, 2018 yilda 12,0 ming kishiga yoki 1,9 %ga o'sgan.

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)

2017 yil

2018 yil

Tug'ilish

24,7



26,8



O'lim

5,4



4,9



Tabiiy o'sish

11,4



13,3



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 16,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 26,8 promilleni tashkil etdi va 2017 yilga nisbatan 2,1 ga (2017 yilning mos davrida 24,7 promille bo'lgan) o'sdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 2,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 799 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 ga kamaydi (2017 yilning mos davrida 5,4 promille bo'lgan).

Markaz aholisining tabiiy o'sishi 12,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga o'sishi (2017 yilning mos davrida 11,3 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 5,7 mingta nikoh va 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 9,5 promilleni tashkil qilib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,0 ga o'sdi (2017 yilning mos davrida - 9,5 promille bo'lgan).

Namangan shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (1000 aholiga nisbatan, yanvar-dekabr holatiga, promille)



Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,9 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega (2017 yilning mos davrida 1,0 promille bo'lgan) o'sgan.

Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(69) 227-84-91